

MAJBURIY SOYILGAN HAYVON TANASI VA ICHKI ORGANLARINI TEKSHIRISH

Tuxtamishov Nodir Sobirdin o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiya universitetining Toshkent filiali assistenti.*

Annototsiya: Majburiy so'yilgan hayvon go'shti hozirgi vaqtda, aholi orasida, kushxonalarda ko'plab uchraydi. Ayni shu majburiy so'yilgan hayvon go'shtining sotuvga yoki qayta ishlashga yo'naltirish uchun undagi belgilar bilan baholab olish juda muhim o'rin tutadi. Quyidagi maqolada majburiy so'yilgan hayvon go'shti ichki organlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Bosh, yurak, o'pka, taloq, jigar, buyrak, limfa

Аннотация: Насильственно забитое мясо животных в настоящее время распространено среди населения и птичников. Очень важно оценить мясо этого вынужденного убоя животного по его маркировке, чтобы направить его на реализацию или переработку. В данной статье описана ветеринарно-санитарная экспертиза внутренних органов принудительно забитых животных.

Ключевые слова: Голова, сердце, легкие, селезенка, печень, почки, лимфатические узлы.

Annotation: Forcedly slaughtered animal meat is currently common among the population and poultry houses. It is very important to evaluate the meat of this forced slaughtered animal by its markings in order to direct it to sale or processing. The following article describes the veterinary sanitary examination of internal organs of forcibly slaughtered animals.

Key words: Head, heart, lungs, spleen, liver, kidney, lymph nodes

Go'sht kombinati, kushxona, xo'jalikda kasallanish yoki hayvon hayotiga xavf soluvchi boshqa sabablar tufayli, shuningdek uzoq muddatli, iqtisodiy oqlamaydigan davolash talab etilgan hollarda hayvonlar majburiy so'yilganda go'shtni va boshqa so'yish mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish, ushbu **"Go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish qoidalari"** ga asosan tartibda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu qoidalarining XV bo'limida ko'rsatilganidek, albatta bakteriologik, zarur hollarda esa fizik-kimyoviy tekshirishlar o'tkaziladi, bunda albatta go'shtga xos bo'lmagan yot hidlarni aniqlash uchun qaynatib ko'rish probasi bajariladi.

Hayvonlarni majburiy so'yish veterinariya vrachining (feldsherning) ruxsati bilan amalga oshiriladi.

So'yish korxonalariga majburiy so'yish uchun keltirilgan hayvonlar so'yishdan oldin saqlanmaydi.

Xo'jalikda hayvonlarni majburiy so'yilganligi sabablari to'g'risida veterinariya vrachining imzosi qo'yilgan dalolatnoma tuzilishi shart. Ushbu dalolatnoma va majburiy so'yilgan hayvon tana go'shtini bakteriologik tekshirish natijalari haqida veterinariya laboratoriyasining xulosasi veterinariya guvohnomasi bilan birgalikda ushbu tana go'shtini qayta ishlash sexiga yuboriladi, qayta ishlash korxonasida tana go'shti takroran bakteriologik tekshirishdan o'tkaziladi.

Hayvonlarni pestitsidlar va boshqa zaharli kimyoviy moddalar bilan zaharlanganligiga gumon qilingan hollarda veterinariya laboratoriyasining, go'shtni zaharli kimyoviy moddalar mavjudligiga tekshirish natijalari to'g'risidagi xulosasi bo'lishi zarur.

Majburiy so'yilgan hayvonlarning go'shtini xo'jalikdan go'shtni qayta ishlash korxonalariga tashish, go'sht mahsulotlarini tashish bo'yicha amaldagi veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Veterinariya-sanitariya ekspertizasini to'g'riligini ta'minlash maqsadida majburiy so'yilgan qo'y, echki, cho'chqa va buzoqlarning go'shti qayta ishlash korxonalariga butun tana go'shti holida keltiriladi, yirik shoxli mollar va tuyalarning go'shti esa butun tana go'shti, yarimta va chorak tana go'shti holida keltiriladi hamda alohida sovuqxona kamerasiga joylanadi. Yarimta yoki chorak tana go'shtlariga ularning bir tana go'shtiga taalluqli ekanligini aniqlash uchun belgi qo'yiladi.

Xo'jalikda majburiy so'yilgan cho'chqalarning tana go'shtlari kallasi ajratilmasdan keltirilishi shart.

Xo'jalikda majburiy so'yilgan hayvonlarning go'shti qayta ishlash korxonasiga tuzlangan holda keltirilganda har bir bochkada bir tana go'shtining tuzlamasi solinishi shart.

Qayta ishlash korxonasiga, so'yishdan oldingi ko'riksiz, majburiy so'yilgan, veterinariya guvohnomasi (ma'lumotnomasi), majburiy so'yishning sababi to'g'risidagi veterinariya dalolatnomasi va veterinariya laboratoriyasining bakteriologik tekshirishlar xulosasi olinmasdan keltirilgan hayvonlarning tana go'shtlarini qabul qilish taqiqlanadi.

Agarda ekspertiza natijasi, shuningdek ushbu qoidalarining XV bo'limdagi talabga ko'ra bakteriologik va fizik-kimyoviy tekshirishlar natijalari bo'yicha go'sht hamda boshqa majburiy so'yishdan olingan go'sht mahsulotlari oziq-ovqat uchun yaroqli deb topilsa ular qaynatishga, shuningdek go'sht nonlari yoki konservalar tayyorlash uchun ishlatiladi.

Ushbu go'shtni va boshqa so'yish mahsulotlarini, dastavval qaynatish orqali zararsizlantirilmagan holda, ya'ni xom holicha chiqarish, shuningdek umumiy ovqatlanish tarmog'iga berish taqiqlanadi.

***Izoh.** Majburiy so'yish holatiga quyidagilar kiritilmaydi: klinik sog'lom, talab etilgan konditsiyagacha bo'rdoqiga boqishga berilmagan, o'sish va rivojlanishdan orqada qolgan, mahsuldorligi kam, qisir, biroq tana harorati me'yorida bo'lgan hayvonlarni so'yish;

tabiiy ofat (qishki yaylovda qor bosishi va hokazo) natijasida o'lim xavf solgan, shuningdek so'yish korxonasida so'yishdan oldin travma olgan sog'lom hayvonlarni so'yish;

go'shtni qayta ishlash korxonalarida mollarni majburan so'yish faqat sanitariya kushxonasida amalga oshiriladi.

Hayvonlarning kalla, ichki organlari va tana go'shtini veterinariya-sanitariya ekspertizasi quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) yirik shoxli mollarda:

Kalla: jag' osti, quloq atrofi va halqum orti limfa tugunlari ko'zdan kechiriladi va kesib ko'riladi. Lablar, til ko'zdan kechirilib, paypaslab ko'riladi. Chaynov mushaklari har bir tomondan, qavat - qavat qilinib, butun kengligi bo'ylab, yuzasiga parallel ravishda tashqi mushaklar ikki, ichki mushaklar esa bir marta kesilib tsistitserkozni (finnozni) aniqlash uchun ko'riladi.

Taloq: tashqi tomondan va uzunasiga, teshmasdan kesib ko'riladi.

O'pkalar: tashqi tomondan va barcha bo'laklari paypaslab ko'riladi. Chap bronx, traxeobronx va o'rta devor limfa tugunlari kesib ko'riladi. Yirik bronxlar (ozuqa massasi va boshqa jismlar mavjudligiga) va patologik o'zgarishlar aniqlangan joylar kesiladi va ko'zdan kechiriladi.

Yurak: yurak xaltasi yorib ko'riladi. Epikard, miokard holati ko'zdan kechiriladi, yurak mushaklari (tsistitserkoz, sarkotsistoz uchun) yurakning katta egriligi bo'ylab o'ng va chap bo'lmalari 1-2 ta uzunasiga va bir marta ko'ndalangiga kesiladi, endokard va qonning holati ko'zdan kechiriladi.

Jigar: diafragma va visseral tomondan ko'zdan kechiriladi va paypaslab ko'riladi. Diafragmaning jigarga o'sib kirgan holatlarda diafragma ajratib olinadi va jigar parenximasida o'zgarishlar mavjudligiga qaraladi. Portal limfa tugunlari kesiladi va ko'zdan kechiriladi, visseral tomondan o't yo'llari bo'ylab 2-3-marta kesib ko'riladi.

Buyraklar: kapsulasidan ajratiladi, ko'zdan kechiriladi va paypaslab ko'riladi, o'zgarishlar aniqlangan taqdirda kesib ko'riladi.

Oshqozon (oshqozon oldi bo'linmalari): tashqi tomondan seroz qavatini ko'riladi, limfa tugunlari kesiladi va ko'zdan kechiriladi. Zarur hollarda oshqozon shilliq qavatini ko'rish uchun yoriladi, qizilo'ngach (tsistitserkoz, sarkotsistoz uchun) ko'zdan kechiriladi.

Ichaklar: seroz qavatini tomondan ko'zdan kechiriladi va bir nechta qorin pardasi limfa tugunlari kesib ko'riladi.

Yelin: diqqat bilan paypaslab ko'riladi va bir-ikki marta parallel kesib ko'riladi. Elin usti limfa tugunlari kesib ko'riladi.

Bachadon, urug'donlar, siydik pufagi, oshqozon osti bezi: ko'zdan kechiriladi, zarur hollarda esa kesib ko'riladi.

Tana go'shti: tashqi va ichki yuzasi shishlar va boshqa patologik o'zgarishlar mavjudligiga diqqat qilingan holda ko'zdan kechiriladi.

Yuqumli kasallikka yoki moddalar almashinuvining buzilishi bilan bog'liq kasalliklarga gumon qilinganda quyidagi limfa tugunlari kesib ko'riladi: yuzaki-bo'yin (kurak oldi), qanot osti (birinchi qovurg'a va haqiqiy qanot osti), qovurg'a-bo'yin,

qovurg'alar aro kranial ko'krak, to'sh usti, bel, yonbosh, son, tizza burmasi, yuzaki chot, dumg'aza va tizza osti. Zarur hollarda finnalarni aniqlash uchun qo'shimcha bo'yin, kurak-tirsak, orqa, bel, son guruhi va diafragma mushaklari uzunasiga kesib ko'riladi.

Shuningdek, buzoqlarda kindik ko'zdan kechiriladi va bilak hamda sakrov bo'g'inlari kesib ko'riladi;

b) mayda shoxli mollarda:

Kalla, ichki organlar va tana go'shti xuddi yirik shoxli mollardagi singari ko'riladi. Kazeozli limfadenitni aniqlash uchun yuzaki-bo'yin va tizza burmasi limfa tugunlari kesib ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. S.M.Murodov. Veterinariya-sanitariya ekspertizasi. Darslik. Samarqand, 2006 yil.
2. S.Murodov. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining vetsanekspertizasi, qayta ishlash texnologiya asoslari va standartizatsiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand, 1997 yil.
3. Z.P., Korolkova E.P. Oziq-ovqat tovarlari: boshlanish uchun darslik. prof. Ta'lim: Darslik. muhitlar uchun qo'llanma. prof. Ta'lim - 2-nashr, o'chirilgan. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2003. - 272s.
4. S.M.Murodov va boshqalar. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi, qayta ishlash texnologiyasi, gigiyenasi va standartizatsiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand 2013 yil.
5. Veterinariya to'g'risidagi qonun.
6. Internet saytlari.